



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

SURXON VOHASIDA MAORIF TIZMINING VUJUDGA KELISHI

Jo'rayev Azizbek Anvarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998930781078

e-pochta azizdjurayev078@gmail.com

Mamatliyeva Mohidil O'rol qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998905222405

e-pochta mamatliyevamohidil6@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1925-1945 yillarda Surxon vohasida ta'lim tizimi, sovet hokimiyati tomonidan maktablarning tashkil etilishi, jamoalashtirish, siyosiy, ijtimoiy voqealar to'g'risida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Denov, Yurchi qo'rg'oni, Ibrohim Yusufiy, Norbo'ta Nazarovlar, Boysun, Termiz, Toshkent, Xayraobod, tojiklar, ruslar.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье представлены сведения о системе образования в Сурханском оазисе в 1925-1945 годах, организации школ советской властью, коллективизации, политических и общественных мероприятиях.*

Ключевые слова: *Денов, Юрчи Кургони, Ибрагим Юсуфи, Норбота Назаровы, Бойсун, Термез, Ташкент, Хайрабад, таджики, русские.*

Annotation: *This article provides information about the education system in the Surkhan oasis in 1925-1945, the organization of schools by the Soviet authorities, collectivization, political and social events.*

Keywords: *Denov, Yurchi Kurgoni, Ibrahim Yusufi, Norbota Nazarovs, Boysun, Termiz, Tashkent, Khayrabad, Tajiks, Russians.*

1925-1941 yillarda sovet hokimiyati uchun Surxon vohasida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mavqeyini mustahkamlash davri bo'ldi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zining mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa, bu jarayon kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lib hisoblanadigan ta'lim, ilm-fan va madaniyatda jiddiy tus oldi. Bu hol butun Surxon vohasini qamrab olgan edi, mana shunday bir davrda xalqning ma'rifatga, fanga va milliy madaniyatga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan yo'qqa chiqarila boshlandi. Olib borilayotgan ishlar natijasi siyosiy manfaatlar yo'liga burildi natijada mavjud milliy ziyolilarni yo'q qilish va xalqning "savodxonlik" darajasini o'stirish orqali o'zlarining yangi ziyoli kadrlarini shakllantirish hamda byurokratik boshqaruv tizimni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

mustaxkamlashni ta'minlashdan iborat bo'ldi. Sovet hokimiyatining bosh g'oyasi, qattiq mafkuraviy nazoratni o'rnatish va olib borayotgan siyosatni mustahkamlashda umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish, savodsizlikni tugatish kabi islohotlar turardi. Buning uchun vohada yangi sovet maktablari o'qituvchilarga muxtoj bo'lsa-da, lekin ular eski usul maktablari muallimlaridan foydalanmadi, chunki dushman ko'zi bilan qaraldi, ya'ni endi u maktablar biz uchun begona, ular eskilik sarqitlari deb baholandi va shu g'oyaga ishontirish uchun o'z siyosiy ishlarini olib bordilar. Dastlabki davrda vohada jami bo'lib, 6 ta maktab faoliyat olib borgan bo'lsa, ularda bor yo'g'i 500 kishi taxsil olgan deb sovet hokimiyati vakillari ma'lumot berdi, shundan 250 tasi o'zbeklar deb e'tirof etildi¹⁴.

Lekin o'sha yillarda vohada an'anaviy maktablar ham o'z faoliyatini olib borgan bo'lib, ularda 1000 kishiga yaqin mahalliy aholi vakillari ta'lim olgan. Eng asosiysi qilinishi kerak bo'lgan ishlarda ishchi kuchi yetishmasligi va ta'lim tarbiya masalasida kadrlar muammosi mavjud edi. Shuning uchun ham 1925 yilda an'anaviy ta'limga oz fursat bo'lsa-da imkon berib turdi. Shu yilning ikkinchi yarmiga kelib vohada yana 4 ta maktab joriy qilindi. Surxon vohasida jami 10 ta maktab ta'lim beradigan bo'ldi. Ular yangi usul maktabi deb hisoblanib, 597 kishi qatnay boshladi. Shundan 260 kishi mahalliy o'zbeklar hisoblangan edi. Eski usul ya'ni an'anaviy maktablarga 1072 kishi qatnashib ular ham ta'lim olishlariga imkoniyat yaratib berib turildi¹⁵. Shu yilning o'zida Surxon vohasining Boysun va Termiz shahrida maktablar ochilib ularga qishloq dehqon bolalari taklif qilina boshlandi. Vohaning shahar qismida 5 ta maktab ochilgan bo'lsa, Sherobot tumanida ham 5 ta maktab tashkil qilindi. Jami Termiz shahridagi maktab o'sha yilning o'zida 16 taga yetdi, shundan 7 tasi yevropa millati vakillari tahsil oladigan bo'ldi. Boysun tumanidagi tashkil qilingan maktablarda o'quvchilar soni 410 nafarga yetdi. Yurchi qo'rg'onining o'quvchilari atigi 90 nafar bo'lib, umumiy voaha bo'yicha jami 41 ta maktab faoliyat yuritdi. Tashkil qilingan 41 ta savodsizlikni tugatish maktabida 41 nafar o'qituvchi ish faoliyatini olib bordi.

1925-1926 o'quv yilida o'qituvchi kadrlar kerak deb hisoblanib, eng asosiysi vohaning markaziy shaharlariga ochilishini e'tirof etdilar. Boysun tumanida 10 ta maktab bo'lsa, Denov tumaning Yurchi qo'rg'onida esa 6 ta maktab faoliyat yuritgan. Lekin Yurchi qo'rg'oni Boysunga nisbatan aholi soni ko'p bo'lgani bilan maktab bilan ta'minlanish past darajada bo'lgan. Umuman olganda Denov tumanida birinchi maktab Yurchi qo'rg'onida tashkil topgan maktabning ilk

¹⁴ Д.Бичков А.Блинников, Сурхондарё области,-Т., Ўзбекистон 1970 29 б.

¹⁵ С.К.Хабилова Ўзбекистон мактабларида политехника талими тарихидан. Ўқитувчи,-Т., 1974 23-бет.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

o'qituvchilari va tashkilotchilari Ibrohim Yusufiy va Norbo'ta Nazarovlar edi¹⁶. Shu yilning o'zida Yurchi qo'rg'onida birinchi yangi tipdagi sovet maktabi tashkil qilinib, unga 26 nafar o'quvchi bolalar jalb qilinib maktabda 2 nafar o'qituvchi faoliyat olib bordi. O'qituvchilarning biri sovet ittifoqining markaziy shaharlaridan kelgan M.Galiullin bo'lgan. Shuningdek, tumanning o'qituvchilarini o'sha vaqtlarda Moskva va Toshkent shaharlariga o'qib kelishlari uchun sharoit yaratib berildi. 1926 yilda Termizda birinchi pedagoglar tayyorlaydigan bilim yurti ochildi¹⁷. Ushbu bilim yurtidan ko'zlangan maqsad vohaning maktablariga boshlang'ich ta'limni berish, kadrlar bilan ta'minlash va siyosiy targ'ibot ishlarini maktablarda olib borishni keng yo'lga qo'yish edi.

Jamoalashtirish siyosati olib borilayotgan bir davrda endi xo'jaliklarga rahbar kadrlar tayyorlash masalasi turardi. Buning uchun esa mahalliy aholi vakillari ichidan kambag'al-dehqonlar orasidan ishbilarmon, uddaburon, shijoatkor kishilarni topish yotardi. Lekin 1920-yillarda ham vohada eski usul maktablari bo'lib, ularda aholining mehnatkash vakillari tahsil olgan bo'lsalar-da, ularga savodsiz kishi sifatida qaraganlar. Sovet hokimiyati davrida chop etilgan asarlarda O'zbekiston SSR tashkil topganidan keyin mamlakat va uning viloyatlarida savodsizlikka barham berildi degan g'oyaviy so'zlar chop etila boshlandi. Aksincha bu yurtda qanchadan-qancha ulug' allomalar o'tganini sir tutib kelishdi, go'yoki eski usul maktablarida o'qigan kishilar savodsiz deb qaraldi. Eski usul maktab o'qituvchilarini esa g'oyaviy targ'ibotchilikda ayblab ularni qatag'on qilishga harakat qilindi va ularni butkul yo'q qilish kerak deb qaraldi. Chunki, sovet hokimiyatiga vohaning ziyoli, savodli, kishilar va din peshvolari keragi yo'q deb hisoblandi. Savodxon kishilarga o'zlarining yot g'oyalarini singdirishi qiyin edi, shuning uchun ham ularga barham berishga qattiq kirishdilar. Tarixdan ma'lumki, yerlar taqsimlangan, shulardan masjid va madrasa yerlari vaqf deb nomlangan, oddiygina kichik maktabning yonida ham bir necha tanob yeri bo'lgan. O'sha yerning hisobidan maktab o'qituvchisi o'quvchilari bilan birgalikda dehqonchilik qilib undan keladigan daromadga maktabga kerak bo'lgan o'quv qurollari sotib olishgan. Shu bilan birga o'zlariga ham maosh tariqasida mana shu yerdan keladigan daromad hisobidan istiqomat qilishgan. Bu holatni barcha voha aholisi yaxshi bilishgan, chunki, yer Maktabga beklilik tarafidan ajratib berilgan, amlokdorlik esa unga to'laqonli rozilik bildirgan.

Vohada 1920-yillarning ikkinchi yarmidan keyin sovet hokimiyati maktablar tashkil qila boshladi. Endi go'yoki sovet maktabi tashkil qilinganidan keyin unda

¹⁶ М.Бўтаева Деновнинг доврўкли мактаби. – Денов 2010 й.

¹⁷ Д.Бичков А.Блинников, Сурхондарё области,-Т., Ўзбекистон 1970 29 б.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

faqat, dehqon va batrak aholi vakillari o'qiydi deb qaraldi. 1925-1926 yillarda sovet hokimiyati mahalliy aholi vakillarini maktablarga jalb qilishda aholining o'g'il bolalari 1,6% o'zbeklar, 2,9% tojiklar, 75,7% ni ruslar tashkil qilgan bo'lsa, xotinqizlar orasidan esa 0,1% o'zbeklar, 0,1% tojiklar, 54,2% ni ruslar tashkil qilishgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy aholi vakillari sovet hokimiyati tomonidan tashkil qilingan maktablarga borishni istashmagan. Faqatgina ko'chirib keltirilgan rus millati vakillari ushbu maktabga boradiganlarning ko'pchiligini tashkil qilgan. Yana shuni aytish mumkinki sovet hokimiyati maktablarga yer maydoni ajratishni kerak deb targ'ib qildi. 1926 yilda Surxon vohasida qishloq xo'jaligi bilan birga ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi bilan ta'limda biron-bir yutuqqa ega bo'lmadi. Lekin, vohaga sovet hokimiyati o'qituvchilarni jalb qilish kerakligi va zudlik bilan o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochilishini ilgari surdilar. Asosan tashkil qilinishi kerak bo'lgan kurslarga yosh dehqonlarni jalb qilishdi.

Tumanlardagi qishloqlarga sovet turmush tarzini targ'ib qiluvchi yosh kadrlar kerak deb qaralgan edi. Shundan so'ng 1926-1927 o'quv yilida vohaning Denov tumaniga qarashli bo'lgan Anbarsoy, Yurchi hamda Xayraobod qishloq kengashlariga qarashli bo'lgan savodsizlikni tugatish maktablari tashkil qilindi. Surxondaryo okrugida tashkil etilgan Sherobod dehqon yoshlari maktabining tajribasi sovet hokimiyati diqqatiga sazovor bo'ldi. Tashkil qilingan maktab huzurida olti gektardan iborat yer uchastkasi o'quvchilarga ishlab chiqarish va ta'lim berish uchun negiz bo'ldi. Maktab o'quvchilaridan tashkil etilgan va maktab agronomi boshchiligida ish olib borgan qishloq xo'jalik brigadasi dehqonlar orasida qishloq xo'jalik bilimlarini targ'ib qilishga yordam berib turdi¹⁸. Shundan bilish mumkin-ki, sovet hokimiyati ta'lim bilan birgalikda dehqonchilikni ham olib borishni reja qilib oldilar. Asosiy bosh maqsad tashkil qilingan dehqon yoshlar maktabiga kelajakda muhim kadr tayyorlash maskani deb qaralgan. 1927 yilga kelib ham vohaning ayrim tumanlarida xususan Boysun tumanida maktab ta'limi yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. O'sha yillarda juda ko'p marotoba Markaziy ijroiya komitetga murojaat etgani bilan ta'limga e'tibor past bo'lgan. Vohaning boshqa tuman va qishloqlarida maktab ta'limi yo'lga qo'yilmadi. Shuning uchun okrug s'ezdida vohaning faqat iqtisodiy siyosiy ishlari bilan emas, balki ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qaratilishini e'tirof etilib, maktab ta'limini qishloqlarda dehqonlarning bolalarini o'qitishni yo'lga qo'yishga intildi.

Sovet hokimiyati shu yilning o'zida 21 ta savodsizlikni tugatish maktabi ishga tushirilishini ma'lum qildi. Shundan 420 o'quvchi ta'lim olishi va 30 ta o'quvchi

¹⁸ С.К.Хабирова Ўзбекистон мактабларида политехника талими тарихидан. Ўқитувчи,-Т., 1974 23-бет.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

xotin-qizlardan iborat bo'lishi kerak deb ta'kidlandi. Ko'rsatilgan maktablarning 12 tasi yuqori sifat bosqichi hisoblanib, yozgi mavsumda ham o'qishni davom etdirib, unda 243 kishi taxsil oladigan bo'ldi. Biz yuqorida an'anaviy maktablarda qancha kishi taxsil olganligini ta'kidlab o'tgan edik, shunga qaramasdan sovet hokimiyati mahalliy aholini savodsiz kishiga aylantirib, sovet maktabida taxsil olmaganlarni hisoblashar edi. Markaziy ijroiya komitet va O'zbekiston xalq komissarlari kengashi yig'ilishida barcha ta'lim muassasalari bolalar uylari, shahar hamda qishloq maktablari, o'quvchilari va yosh dehqonlar O'zSSR kishisi ular to'laqonli yer ishlariga aralashishini e'tirof etdi. Har bir tuman maktabi uchun 5 gektar bug'doy, 2 gektar paxta ishida ishlashini alohida talab qilib chiqdi. Sovet hokimiyati 1927 yilga kelib maktab o'qituvchilarining oylik ish haqini ishlab chiqdi, unga ko'ra birinchi toifali o'qituvchining ish haqqi tarif bo'yicha belgilangan. Qishloq yoshlariga ta'lim beradigan o'qituvchining ish haqi shaharda ishlaydigan o'qituvchilikiga nisbatan balandroq hisoblandi.

Xulosa. Butun Surxondaryo okrugi va tumanlarining xalq ta'limi sohasi muammoli holat bo'lib, Surxon vohasi xalq maorifining ahvoli haqida dastlabki ma'lumotlarni 1926 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatidan olish mumkin. Chunki, aholining faqat sovet hokimiyati tomonidan tashkil qilingan maktablarda o'qigan kishilarni hisoblab, ularni xat-savodli deb bilishganlar. Shu yilning 5 mayida bo'lib o'tgan okrug ijroiya komitetining maxsus yig'ilishida okrugdagi pedagogik kursni o'qituvchilar tayyorlash uchun safarbar qilishni Xalq Komissarligi bir vaqtning o'zida talab qildi. Pedagogik kursga borib o'qigan kishilarni kursantlar deb atab, ulardan munosib kadrlarni tanlab olib Termiz shahriga okrug xalq ta'limiga yuborilishini talab qildi. Surxondaryo okrugi xalq ta'limi o'qituvchilarning munosiblarini topib keyingi o'quv yilida xalq komissariyatiga tavsiya qiladigan bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С.К.Хабирова Ўзбекистон мактабларида политехника талими тарихидан. Ўқитувчи,-Т., 1974 23-бет.
2. Д.Бичков А.Блинников, Сурхондарё области,-Т., Ўзбекистон 1970 29 б.
3. М.Бўтаева Деновнинг доврўкли мактаби. - Денов 2010 й.
4. С.Турсунов, А.Тўхтаев, Жаркўрғон,-Т., Фан, 2008 й 77-б.
5. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана.-Т., 1968 203 с